

"Barrier-Free Environment" In Inclusive Education And Possibilities Of Its Formation

Shakhnoza Khudaishukurovna Kobilova

Chirchik State Pedagogical University

Faculty of Pedagogy Special Pedagogy

Teacher of the department

kabilovashaxnoza4@gmail.com

Abstract: This article discusses the socio-pedagogical problems that impede the implementation of inclusive education in society, teacher education within the framework of the innovation cluster (IPEC) to meet the educational needs of students with disabilities, as well as to increase their participation in the pedagogical process. The concept of "barrier-free environment" is analyzed. and pedagogical conditions.

Keywords: inclusive education, architectural problems, the concept of "barrier-free environment", organizational and legal issues, pedagogical process, students with disabilities, innovative cluster of teacher education (PTEC), cooperation, educational logistics, intensity, consistency, legal framework.

Inklyuziv Ta'limda “To‘Siqsiz Muhit” Va Uni Shakllantirish Imkoniyatlari

Shaxnoza Xudayshukurovna Kobilova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti


Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika

kafedrasi o‘qituvchisi

kabilovashaxnoza4@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta’limni jamiyat hayotiga joriy etishning istiqbolli imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda to‘siq bo‘lувчи ijtimoiy pedagogik muammolar xususida so‘z yuritilgan bo‘lib, pedagogik ta’lim innovatsion klaster doirasida (PTIK) imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni ta’limga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, hamda pedagogik jarayonda faolligini oshirish bilan bog‘liq omillarni bartaraf etuvchi “To‘siqsiz muhit” konsepsiysi va pedagogik shart-sharoitlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv, ta’lim, arxitekturaviy muammolar, “to‘siqsiz muhit” konsepsiysi, tashkiliy-huquqiy muammolar, pedagogik jarayon, imkoniyati cheklangan o‘quvchi, pedagogik ta’lim innovatsion klasteri (PTIK), hamkorlik, o‘quv dasturlar logistikasi, intensivlik, izchilllik,



me'yoriy baza.

Annotatsiya: V dannoy state rassmatrivayutsya sotsialno-pedagogicheskie problemi, prepyatstvuyushie realizatsii inklyuzivnogo obrazovaniya v obshestve, pedagogicheskogo obrazovaniya v ramkakh innovatsionnogo klastera (PTIK) dlya udovletvorenija obrazovatel'nyx potrebnostey uchashixsy a OVZ, a takje dlya povisheniya ix uchastiya v pedagogicheskij protsess Analiziruyutsya ponyatie «bezbarernaya sreda» i pedagogicheskie usloviya.

Klyuchevie slova: Inklyuzivnoe obrazovanie, arxitekturnie problemi, ponyatie «bezbarernaya sreda», organizatsionno-pravovie voprosi, pedagogicheskiy protsess, obuchayushiesya s OVZ, innovatsionniy klaster pedagogicheskogo obrazovaniya (PTIK), kooperatsiya, uchebnaya logistika, intensivnost, sistemnost, normativno-pravovaya baza.

Inson va uning haq-huquqlari demokratik jamiyatda qonun bilan kafolatlangan. Barcha sohalarda bir xil imkoniyatlardan foydalanish, o‘z aql va iqtidorini namoyen etishi hamda ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlarini qondirish tengligi ta’milangan. Shu nuqtai nazardan ta’lim olish va undan davlat va jamiyat ehtiyojiga muvofiq yo‘naltirish, shaxs sifatida o‘zini namoyon etish imkoniyati cheklangan bolalarga ham bir xil shart – sharoitlar yaratishni taqzo etadi. Bu masalaning birlamchi ruyobi inklyuziv ta’limdir.


Albatta inklyuziv ta’limni amaliyotga joriy etish, ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilariga yuqori talablarni qo‘yadi. Tadqiqotchilar T.Brandon va J.Charlton ta’kidlaganidek, inklyuziv ta’lim jarayonida imkoniyati cheklangan o‘quvchilardan intellektual va psixologik safarbarlik talab etilsa, sog‘lom o‘quvchilardan – bag‘ri kenglik, tushunish va yordam berishga ruhiy tayyorlik talab qilinadi. Inklyuziv ta’lim jarayoni bilan bog‘liq uzoq tarixga ega va amaliyotda ma’lum tajribaga erishgan mamlakatlarda ham nogiron o‘quvchilar bo‘lgan guruhlarda ishlashda o‘qituvchilar bir qator muammolarga duch kelishadi[1].

Ushub ilmiy nuqtai nazardan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, inkyulziv ta’lim davlat va jamiyat oldida turgan muammoli vaziyatlardan biri bo‘lib, uni tashkil etishni psixologik va pedagogik omillarini ilmiy tadqiqotlar asosida o‘rganib borish taqozo etiladi.

Mamlakatimiz qonunchiligidagi inklyuziv ta’limga muhtoj bo‘lgan bolalar uchun teng huquqlilik masalalari belgilanib va amaliy mexanizmlari yaratilmoqda. Ta’kidlash lozimki, imkoniyati cheklangan bolalar sog‘lom bolalar bilan bir qatorda ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu yaxshi albatta. Ammo masalaning ikkinchi tomoniga ham e’tibor berish zarur, ya’ni inklyuziv ta’lim uchun zarur mobillashgan ta’lim muhitini yaratish hamda uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlovchi xizmat ko‘rsatish sohalari muvofiqligini ta’minalash masalasi birlamchi o‘ringa chiqish kerak.

Bizning nuqtai nazarimizcha, jamiyatda inklyuziv ta’limni amalga oshirishda “to‘siqsiz muhit” konsepsiyasini qonuniy asoslarini ishlab chiqish taqozo etiladi. “To‘siqsiz muhit” konsepsiyasida ta’lim inklyuziyasining muvaffaqiyati uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy pedagogik shart-sharoit va omillar muvofiqligi, sohalararo o‘zaro integratsiya va transformatsiya hamda ta’limiy logistik masalalarni ilmiy-amaliy asosda tashkil etish zarur.

“To‘siqsiz muhit” - inklyuziv ta’limni jamiyatda ma’no-mazmunini oshirib, ijtimoiy



ahamiyatini yanada yuksaltiradi. Bunda inklyuziv ta'limga jalb etilgan o'quvchilar psixologik jihatdan o'zini erkin his etishi, davlat va jamiyatga kerakli inson ekanliklarini, ularning iqtidori va qobiliyati insoniyat istiqboligi xizmat qilishini har doim his etib, mayjud imkoniyatdan foydalangan holda yuqori natijalarni qayd etishi mumkin. Shuningdek, ta'lim olishga bo'lgan faoliagi ortadi hamda shaxsiy va kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish uchun kerakli ma'lumotlarni olishi, tengdoshlari bilan muloqot qilishi, hamda ijtimoiy hayotning turli jabhalarida ishtirok etishini yuzaga chiqaradi.


“To'siqsiz muhit” - imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun qulay ta'lim olish omili bo'lib, quyidagi va muammolarni qay darajada hal etilishi bilan taqozolanadi.

Arxitekturaviy muammolar:

- imkoniyati cheklangan o'quvchilarni nogironlik turlaridan kelib chiqib, ularning bilim olish va qulay harakatlanishi uchun bino infratuzilmasini inklyuziv ta'lim talblariga javob bermasligi;
- imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ta'lim olish imkoniyatini to'liq ta'minlaydigan va ularni boshqalar qatori yozib-tushuntirib berishiga imkoniyat beruvchi, zamonaviy harakatlanuvchi (tushib-ko'tariladigan) doskalarni yo'qligi;
- ko'p qavatli uylarda, o'quv binolarida, o'quv binosiga olib boradigan yo'llarda va hokazolarda pandus va liftlarning yo'qligi;
- imkoniyati cheklangan o'quvchilar “zaruriy va tabiiy ehtiyojlari” uchun erkin jismoniy harakatlanishda shart-sharoitni yaratilmaganligi (boshqalar yordamiga doimiy ehtiyojni saqlanib qolayotganligi);
- o'quv xonalarida maxsus jihozlangan o'quv joylari, jihozlar va o'quv texnik vositalarining yo'qligi;
- oshxona va kutubxonalar imkoniyati cheklangan o'quvchilarning erkin harakatiga muljallanmaganligi va h.a.

Tashkiliy va huquqiy muammolar:

- imkoniyati cheklangan o'quvchilar jalb etilishi mo'ljallangan ta'lim muassasalarda inklyuziyasini boshlash uchun yetarli darajada tayyor emasligi;
- imkoniyati cheklangan o'quvchilarni inklyuziv o'qitish amaliyoti muammoosining omillari chuqur anglanmaganligi hamda zaruriy o'quv dasturlarini tayyorlash, yaratish va o'quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqib qayta ko'rilmaganligi;
- inklyuziv ta'limga jalb etilgan imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'lim integratsiyasini ijtimoiy-pedagogik texnologiyalari ishlab chiqilmaganligi;
- inklyuziv ta'limga jalb etilgan imkoniyati cheklangan o'quvchilarni to'liq o'zlarini namoyon etishlari uchun bandlik, ijtimoiy muhofaza, madaniyat, sport, transport, mintaqaviy rivojlanish, ta'lim va fan, moliya, aloqa, ommaviy axborot vositalari kabi tashkilotlar bilan yuzaga kelish mumkin bo'lgan muammolarni birgalikda hal etish masalalarida maqsadli hamkorlik dasturlari ishlab chiqilmaganligi;
- inklyuziv ta'limga jalb etilgan imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'lim sifatini oshirishda pedagogik innovatsion ta'lim klasteri doirasida tashkil etilishi kerak bo'lgan dasturlarning mutloqo yo'qligi;
- inklyuziv ta'limga jalb etilgan imkoniyati cheklangan o'quvchilarni o'qitish uchun ta'lim



resurslarini yaratish va o‘quv jarayonini amalga oshirishda hamkorlik qilish imkoniyati mavjud bo‘lgan OTMlар bilan qo‘shma va istiqbolli dasturlarni ishlab chiqilmaganligi;

- inklyuziv ta’limga jalb etilgan imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni aralash ta’lim dasturi asosida sifatli ta’lim berish borasida istiqbolli o‘quv dasturlarini mavjud emasligi;


- imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni o‘qitishning inklyuziv amaliyotini zaruriy tarkibiy qismlarini ta’minlaydigan tuzilmalarni zamon talabi darajasida yaratilmaganligi;

- imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun elektron darsliklar (audio, video) turkumi talab va ehtiyoj darajasida yaratilmaganligi hamda maqsadli dasturga muvofiq ishlab chiqilmaganligi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki ta’limda inklyuziv amaliyotni joriy etish va rivojlantirish, yangi ta’lim standartlariga o‘tish, samarasiz dasturlarni qayta ko‘rib chiqish, mamlakatimizdagи amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatga muvofiqlashtirish soha xodimlaridan chuqur ilmiy tadqiqot izlanishlarni talab etadi. Ta’kidlash lozimki, bu borada nufuzli OTM va tashkilotlar bilan pedagogik innovatsion ta’lim klasteri (PTIK) doirasida hamkorlik ishlarini tashkillashtirish, o‘quv dasturlar logistikasini tashkil etish, inklyuziv ta’lim maqsadidan kelib chiqib intensivlik asosida izchil va hayotiy tashkiliy-me’yoriy bazani yaratish hamda amaliyotgan bosqichma - bosqich realizatsiya etib borish taqozo etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Brandon T., Charlton J. The lessons learned from developing an inclusive learning and teaching community of practice // International Journal of Inclusive Education. – 2011. – Vol. 15. – № 1. – P. 165–178.
2. Hill D., Brown D. Supporting inclusion of at risk students in secondary school through positive behaviour support // International Journal of Inclusive Education. – 2013. – Vol. 17, Iss. 8. – P. 868–881.
3. Qodirova F., Sh.Kobilova “Povishenie kachestva inklyuzivnogo obrazovaniya v usloviyakh pedagogicheskogo innovatsionnogo klastera” / PEDAGOGIK TA’LIM KLASTERI: MUAMMO VA YECHIMLAR. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2021-yil, 25-26 iyun. –B.109-115.
4. Qodirova F., Sh.Kobilova “Ta’lim klasteri asosida inklyuziv ta’limga jalb etilgan o‘quvchilar hayot xavfsizligini ta’minalash shart-sharoitlari” Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari, mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya / Materiallari to‘plami,- Toshkent -2021, - B.85-86
5. Mastryukov B.S. Bezopasnost v chrezvichaynih situatsiyax: 3-ye izd., pererab. i dop. - M.: Izd. sentr «Akademiya», 2016. - 336 s.
6. Smirnov A. T.Osnovi bezopasnosti jiznedeyatelnosti. 11 klass: ucheb. dlya obsheobrazovat. organizatsiy : bazoviy uroven / A. T. Smirnov, B. O. Xrennikov; pod red. A. T. Smirnova. - M.: Prosveshenie, 2014. - 320 s
7. Kobilova Sh.X. Inklyuziv ta’limdagi integratsion jarayon xavfsiz hayot muhitini barqarorlashtirish omili sifatida // Rol nauki v razvitiu sovremennoego obЩestva: materialy mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii (31 yanvarya 2023g.,Omsk) Otv. red. Morozov S.A. – Izdatelstvo SPM «Akademiya Nauki», Omsk.- 2023-S.130-136.



8. Kobilova Sh.X. Inklyuziv ta'lim sharoitida o'quvchilar motivini xavfsiz hayotga muvofiqlashtirishning pedagogik-psixologik omillari / Kasb-hunar ta'limi. Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. №1, 2023 -B.269-275
9. Kobilova Sh.X. Pedagogical approaches to formation of life safety competence of students with disabilities in practical activiti / Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137 Vol. 13, Issue 1, January 2023.- S. 72-78.
10. Kobilova Sh.X. Inklyuziv ta'lim jarayonida pedagogik ta'lim innovatsion klasteri modelini ishlab chiqilishi va uning istiqbollik imkoniyatlari // Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash va ta'lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishning strategik modellari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami – T.: 2023. -B.161-164
11. Kobilova Sh.X. Pedagogik innovatsion ta'lim klaster asosida xalq ta'limida inklyuziv muhitni yaratish yuzasidan ijtimoiy-pedagogik yondashuv / Mug'allim həm ყziksiz bilimlendirio'. №6/3.2022.-B.52-57